



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI FAR'ONA VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI

Farg'ona viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Fargʻona viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **31,6** mingtani tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **4,2** mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,9** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-iyunida **3,2** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz) tashkil qilindi, bu oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **72,7 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – oʻz mulkida, xoʻjalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega boʻlgan hamda oʻz majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, oʻz nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega boʻla oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda daʼvogar va javobgar boʻla oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega boʻlgan sohalar boʻyicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
1 967	Oltiariq tumani	1 911
1 189	Qo'shtepa tumani	1 198
1 370	Bag'dod tumani	1 198
1 557	Buvayda tumani	1 316
1 256	Beshariq tumani	1 061
1 740	Quva tumani	1 462
1 845	Uchko'prik tumani	1 646
1 324	Rishton tumani	1 319
933	So'x tumani	946
1 792	Toshloq tumani	1 548
1 596	O'zbekiston tumani	1 450
1 571	Farg'ona tumani	1 468
1 757	Dang'ara tumani	1 435
933	Furqat tumani	843
847	Yozyovon tumani	848
5 781	Farg'ona shahar	5 247
3 830	Qo'qon shahar	3 281
1 413	Quvasoy shahar	1 198
3 147	Marg'ilon shahar	2 535

2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **31 605** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 227** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Farg'ona shahrida **5 247** tani yoki jamiga nisbatan **16,6 %** ni tashkil etdi.

2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Farg‘ona sh	16,1
Quvasoy sh	11,7
Qo‘qon sh	10,5
Marg‘ilon sh	9,9
So‘x t	11,4
Dang‘ara t	7,9
Oltiariq t	8,3
Toshloq t	6,6
Uchko‘prik t	6,6
Furqat t	6,2
Yozyovon t	7,6
Farg‘ona t	6,5
O‘zbekiston t	6,0
Rishton t	5,9
Buvayda t	5,1
Qo‘shtepa t	5,7
Quva t	4,9
Bag‘dod t	5,0
Beshariq t	4,3

Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-iyul holatiga, birlikda



2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **7,7** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,2** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona shahrida **16,1** birlik, Quvasoy shahrida **11,7** birlik, So‘x tumanida **11,4** birlik, va Qo‘qon shahrida **10,5** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Fargʻona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori koʻrsatkich

Fargʻona shahar
– 16,1 birlik.

Oʻrta koʻrsatkich

Toshloq tumani
– 6,6 birlik.

Eng past koʻrsatkich

Beshariq tumani
– 4,3 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori koʻrsatkich Fargʻona shahrida 16,1 birlik, Quvasoy shahrida 11,7 birlik, Soʻx tumanida 11,4 birlik, Qoʻqon shahrida 10,5 birlik, Margʻilon shahrida 9,9 birlik, Oltiariq tumanida 8,3 birlik, Dangʻara tumanida 7,9 birlik, Yozyovon tumanida 7,6 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, oʻzi tavakkal qilib va oʻz mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1-iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan toʻgʻri keladigan tadbirkorlik subyektlarining koʻp tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Fargʻona shahri

16,1

Soʻx tumani

11,4

Margʻilon shahri

9,9

Quvasoy shahri

11,7

Qoʻqon shahri

10,5

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.		2024- y.
200	Oltiariq t.	190
117	Qo'shtepa t.	177
194	Bag'dod t.	146
186	Buvayda t.	128
170	Beshariq t.	118
279	Quva t.	143
173	Uchko'prik t.	149
129	Rishton t.	174
120	So'x t.	87
296	Toshloq t.	142
177	O'zbekiston t.	138
160	Farg'ona t.	165
202	Dang'ara t.	107
133	Furqat t.	85
131	Yozyovon t.	132
810	Farg'ona sh.	495
361	Qo'qon sh.	284
299	Quvasoy sh.	162
285	Marg'ilon sh.	205

2024- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Farg'ona sh.	15,3
Qo'qon sh.	8,8
Oltiariq t.	5,9
Qo'shtepa t.	5,5
Rishton t.	5,4
Farg'ona t..	5,1
Marg'ilon sh..	5,0
Quvasoy sh.	5,0
Uchko'prik t.	4,6
Quva t.	4,4
Buvayda t.	4,0
O'zbekiston t.	4,3
Toshloq t.	4,4
Beshariq t.	3,7
Bag'dod t.	4,5
Dang'ara t.	3,3
So'x t.	2,7
Yozyovon t.	4,1
Furqat t.	2,6

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – **15,3** %, Qo'qon shahri – **8,8** %, Oltiariq tumani – **5,9** %, Qo'shtepa tumani – **5,5** %, Rishton tumani – **5,4** %, Farg'ona tumani – **5,1** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-2024- yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa xizmatlar

■ 2023- y. ■ 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




■ 2023- y. ■ 2024- y.

2024-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 447 ta, sanoatda 727 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 202 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Farg'ona shahrida 495 ta, Qo'qon shahrida 284 ta hamda Marg'ilon shahrida 205 ta yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyuni davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida Farg'ona viloyatida jami **19 277** ta kichik korxona va mikrofirma yangi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **8 127** (yoki **41,4 %**) ta, sanoat sohasida – **4 591** (yoki **24,6 %**) ta, xizmatlar sohasida – **3 937** (yoki **21,6 %**) ta, qurilish sohasida – **1 244** (yoki **5,2 %**) ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 378** (yoki **7,1 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish




Chakana savdo




Xizmatlar




Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da

2024- yilning yanvar-iyunida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,0 %** ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,6** punktga ko'paygan.




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,7 %** ni, qishloq xo'jaligida **95,6 %** ni, yo'lovchi tashishda **96,5 %** ni, yuk aylanmasida **95,4 %** yuk tashishda **93,1 %** ni, chakana savdoda **89,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Qo'qon sh	1 591,4
Farg'ona sh	1 457,0
Uchko'prik t	1 189,7
Marg'ilon sh	926,9
Beshariq t	514,6
Dang'ara t	488,5
Bag'dod t	404,9
Buvayda t	397,4
Quvasoy sh	392,6
Toshloq t	363,5
O'zbekiston t	335,0
Furqat t	322,0
Oltiariq t	272,0
Quva t	216,0
Yozyovon t	166,7
Farg'ona t	147,2
Qo'shtepa t	134,3
Rishton t	119,6
So'x t	63,6

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 502,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qo'qon shahri (**1 591,4** mlrd. so'm), Farg'ona (**1 457,0** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**1 189,7** mlrd. so'm), Marg'ilon (**926,9** mlrd. so'm) va Beshariq tuman (**514,6** mlrd. so'm) lari hissasiga to'g'ri keldi. So'x tumanida (**63,6** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega shahar va tumanlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi ulushi, % da

2024- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **49,8 %** ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100 %), Marg'ilon shahri (96,2 %), Dang'ara tumani (83,4 %) Beshariq tumani (81,6 %), Bag'dod tumani (77,8 %), Buvayda tumani (73,1 %), Uchko'prik tumani (67,0 %) va Rishton tumani (65,2 %) tashkil etdi.

So'x t	100,0
Furqat t	100,0
Yozyov...	100,0
Marg'ilo...	96,2
Dang'ara t	83,4
Beshariq t	81,6
Buvayda t	73,1
Uchko'p...	67,0
Rishton t	65,2
Bag'dod t	77,8
O'zbeki...	54,7
Oltiariq t	61,1
Qo'shte...	12,7
Quva t	60,3
Qo'qon sh	48,7
Quvaso...	51,5
Farg'on...	27,7
Farg'ona t	22,7
Toshloq t	40,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Farg'ona sh	1 200,1	86,5
Qo'qon sh	339,4	86,9
Quvasoy sh	166,3	97,9
Marg'ilon sh	341,4	54,4
Farg'ona t	157,7	73,5
Toshloq t	270,9	98,5
Oltiariq t	198,5	81,1
Quva t	197,7	97,2
Bag'dod t	152,5	92,9
Buvayda t	134,4	68,3
Qo'shtepa t	232,0	74,3
Uchko'prik t	149,6	98,5
O'zbekiston t	130,8	95,5
Yozyovon t	97,0	89,3
Rishton t	95,7	95,7
Dang'ara t	96,7	55,2
Furqat t	66,7	94,5
So'x t	68,7	96,4
Beshariq t	154,0	96,5

hajmi, mlrd.
so'mda


ulushi, % da

2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 250,1** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **82,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **118,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (**1 200,1** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**339,4** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**341,4** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**270,9** mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (**232,0** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**198,5** mlrd. so'm) hamda Quva (**197,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7 098,4** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **67,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **121,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Farg'ona shahri (**1 249,5** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**1 021,0** mlrd. so'm), O'zbekiston tumani (**981,4** mlrd. So'm), Quvasoy shahri (**521,9** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**516,8** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**391,7** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**383,0** mlrd.so'm) qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya haimi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **16,2** trln. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,6** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,2** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Oltiariq tumani (1 287,3 mlrd. so'm), Beshariq tumani (1 268,0 mlrd. so'm), Rishton tumani (1 227,9 mlrd. so'm), Quva tumani (1 189,8 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (1 144,3 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (1 118,8 mlrd. so'm) hamda O'zbekiston (1 062,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Oltiariq t **1,3** 97,4

Qo'shtepa t **1,1** 99,1

Bag'dod t **1,1** 97,0

Buvayda t **1,0** 100,0

Beshariq t **1,3** 97,0

Quva t **1,2** 99,3

Uchko'prik t **0,9** 99,9

Rishton t **1,2** 99,4

So'x t **0,3** 92,1

Toshloq t **0,9** 98,1

O'zbekiston t **1,1** 99,2

Farg'ona t **1,1** 72,0

Dang'ara t **0,9** 99,3

Furqat t **0,6** 99,9

Yozyovon t **0,6** 98,1

Farg'ona sh **0,4** 91,0

Qo'qon sh **0,1** 78,9

Quvasoy sh **0,9** 95,0

Marg'ilon sh **0,2** 99,9

hajmi, trln. so'mda 
ulushi, % da 

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11 346,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **89,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **112,5 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Oltiariq t	533,8	97,0
Qo'shtepa t	280,4	98,4
Bag'dod t	344,4	97,1
Buvayda t	703,7	98,4
Beshariq t	473,9	97,4
Quva t	601,1	98,1
Uchko'prik t	980,6	62,0
Rishton t	316,0	96,7
So'x t	337,8	99,2
Toshloq t	334,2	98,7
O'zbekiston t	258,0	96,0
Farg'ona t	362,6	98,7
Dang'ara t	247,9	84,5
Furqat t	136,8	96,8
Yozyovon t	185,1	97,5
Farg'ona sh	1 725,8	89,2
Qo'qon sh	1 825,4	87,9
Quvasoy sh	258,9	98,8
Marg'ilon sh	1439,5	95,9

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri (**1 825,4** mlrd. so'm), Farg'ona shahri (**1 725,8** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**1 439,5** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**980,6** mlrd. so'm), Buvayda tumani (**703,7** mlrd. so'm), Quva tumani (**601,1** mlrd. so'm) va Oltiariq (**533,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 512,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,4** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **111,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona sh. (**2 268,8** mlrd. so'm), Qo'qon sh. (**1 631,3** mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (**1 060,7** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**526,7** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**375,2** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**341,7** mlrd. so'm) va Buvayda tumani (**341,1** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-iyun oylarida)

4 350,4	Savdo xizmatlari	29,4
3 302,1	Moliyaviy xizmatlar	22,3
2 582,8	Transport xizmatlari	17,5
789,2	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,3
763,8	Shaxsiy xizmatlar	5,2
706,2	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,8
389,2	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,6
393,0	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,7
352,7	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,4
332,3	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,2
302,7	Ijara xizmatlari	2,0
112,1	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,8
403,2	Boshqa xizmatlar	2,7

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **29,4 %** (**4 350,4** mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlarda – **22,3 %** (**3 302,1** mlrd so'm), transport xizmatlarida – **17,5 %** (**2 582,8** mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida **5,3 %** (**789,2** mlrd. so'm) hamda shaxsiy xizmatlarda **5,2 %** (**763,8** mlrd.so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda **0,8 %** (**112,1** mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH doll.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH doll.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024 yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **214 264,9** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **57,8** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Farg'ona sh.	15,4	56,3
Qo'qon sh.	10,8	56,8
Quvasoy sh.	11,7	84,8
Marg'ilon sh	7,4	99,7
Oltiariq t.	70,2	98,6
Qo'shtepa t.	1,6	3,2
Bag'dod t.	5,4	74,0
Buvayda t.	5,2	67,8
Beshariq t.	4,2	48,4
Quva t.	22,3	80,9
Uchko'prik t.	26,1	54,4
Rishton t.	2,7	61,3
So'x t.	1,9	100,0
Toshloq t.	4,8	27,6
O'zbekiston t.	5,1	78,2
Farg'ona t.	2,4	34,0
Dang'ara t.	8,5	95,0
Furqat t.	5,1	100,0
Yozyovon t.	3,1	100,0


hajmi, mln. AQSH dollar

ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida – **100,0** %, Furqat tumanida – **100,0**%, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Marg'ilon shahrida – **99,7** %, Oltiariq tumanida - **98,6** %, Dang'ara tumanida – **95,0**%, Quvasoy shahrida – **84,8** %, ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida – **3,2** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **384 459,2** ming AQSH dollarini yoki jami importning **74,7 %** ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi So'x tumanida – **100,0%**, Furqat tumanida – **100,0 %**, Yozyovon tumanida – **100,0 %**, Marg'ilon shahrida – **99,9%**, hamda Buvayda tumanida **99,0 %** ni tashkil etdi.

Oltiariq t	97,4
Qo'shtepa t	55,4
Bag'dod t	96,8
Buvayda t	99,0
Beshariq t	97,6
Quva t	93,9
Uchko'prik t	74,8
Rishton t	98,9
So'x t	100,0
Toshloq t	92,0
O'zbekiston t	96,1
Farg'ona t	90,2
Dang'ara t	66,4
Furqat t	100,0
Yozyovon t	100,0
Farg'ona sh	58,3
Qo'qon sh	89,4
Quvasoy sh	86,4
Marg'ilon sh	99,9


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



93,1 %

Yuk
tashishda


2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,1 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,9 %** ni tashkil qildi.



95,4 %

Yuk
aylanmasida


2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,3%** ni tashkil qildi.



96,5 %

Yo'lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,5 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9%** ni tashkil qildi.




97,7 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,7 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,5 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil **II chorak** yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 856** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **632 (34,1 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **1 150 (62,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **74 (4,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,2 % (765 ta)**, xizmatlar sohasida – **30,1 % (559 ta)**, sanoatda – **17,9 % (333 ta)**, qurilishda – **7,2 % (134 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3,5 % (65 ta)** ni tashkil etdi.

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

126	Oltiariq tumani	6,8
37	Qo'shtepa tumani	2,0
58	Bag'dod tumani	3,1
72	Buvayda tumani	3,9
74	Beshariq tumani	4,0
90	Quva tumani	4,8
100	Uchko'prik tumani	5,4
77	Rishton tumani	4,1
73	So'x tumani	3,9
62	Toshloq tumani	3,3
81	O'zbekiston tumani	4,4
76	Farg'ona tumani	4,1
88	Dang'ara tumani	4,7
42	Furqat tumani	2,3
55	Yozyovon tumani	3,0
339	Farg'ona sh.	18,3
203	Qo'qon sh.	11,0
50	Quvasoy sh.	2,7
153	Marg'ilon sh.	8,2


soni

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (339 ta), Qo'qon shahri (203 ta), Marg'ilon shahri (153 ta), Oltiariq (126 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning II choragida **412** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **632** taga yetgan yoki 2020- yilning II choragiga nisbatan **220** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilda **787** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-iyunida **1 150** ta yoki **363** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **220** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **74** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan **146** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning II choragida **412** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragiga kelib esa **632** taga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **220** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2020-yilning II choragida **787** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragida **1 150** ta yoki **363** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2020- yilning II choragida **220** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **74** tani tashkil etib, **146** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020-yilning II choragida **29,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **34,1** % ga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **5,1** birlik ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilda **54,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragida **54,1** % yoki **0,7** birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **16,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,7** % ga yetgan yoki **10,5** % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning II choragida **41,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **34,1** % ga yetgan yoki 2020- yilning II choragiga nisbatan **7,7** birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilning II choragida **45,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **54,1** % yoki **8,7** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilning II choragida **12,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **5,7** % yoki **7,1** birlikka kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning II choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi qurilishda– **38,8** % ni, savdoda – **34,6** % ni, sanoatda – **32,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – **67,7** % ni, xizmatlar sohasida – **65,6** % ni, sanoatda – **64,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi xizmatlar sohasida – **5,7** % ni, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – **4,6** % ni, savdoda – **3,8** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **45,5** % ni, qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida – **43,1** % ni va savdoda – **42,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **61,5** % ni, sanoatda – **57,4** % ni, qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida – **56,9** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **5,9** % ni, qurilishda – **3,8** %, savdoda – **2,1** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	34,1	54,1	11,8
Band bo'lganlar soni	18,8	71,0	10,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	28,4	59,8	11,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	22,1	67,7	10,2
Raqobat muhiti	34,9	55,8	9,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	39,2	57,6	3,2
Band bo'lganlar soni	19,2	78,6	2,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	25,6	70,4	4,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	23,5	73,9	2,6
Raqobat muhiti	34,4	63,7	1,9


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli